

FEBRIL XURUJLAR

Febril xurujlar – tana harorati ko'tarilgan paytda kuzatiluvchi tarqalgan tutqanoq xurujlar. Febril xurujlar 6 oylikdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydi. Kasallik eng ko'p uchraydigan davr – bu 1-2 yoshlar.

Eslatma. *Febril xurujlar faqat tana harorati oshgan bola-larda ro'y beradi. Agar tana harorati ko'tarilmasa, tutqanoq xurujlari bo'lmaydi.*

Tana haroratining ko'tarilishi, ko'pincha, yuqori nafas yo'llari infeksiyasi bilan bog'liq. Tana haroratini tushiruvchi dorilar qo'llanilsa, tutqanoq xurujlari ham to'xtaydi.

Febril xurujlar tonik-klonik xurujlar bilan namoyon bo'ladigan birlamchi-tarqalgan epileptik xurujlardir. Shunday bo'lsa-da, ular yengil kechadigan epileptik xurujlar sirasiga kiradi. Chunki bu kasallikda prognoz deyarli har doim yaxshi. Fokal xurujlar uning uchun xos emas. Febril xurujlar qancha erta boshlansa, shuncha erta yo'q bo'lib ketadi. Bola yoshi kattalashgan sayin febril xurujlar soni kamayib boraveradi. Odatda, febril xurujlar bola 6 yoshga yetmasdan o'tib ketadi. Ba'zida epileptik status rivojlanib bola-ning hayoti xavf ostida qoladi.

Febril xurujlar keyinchalik boshqa epileptik xurujlarga o'tishi mumkinligi haqida yagona fikr yo'q. Agar febril xurujlar kuzatilayotgan bemorda bosh miyaning struktur o'zgarishlari va nevrologik buzilishlar aniqlansa, avlodda epileptik xurujlar bilan kasallanganlar bo'lsa, xurujlar takror-takror kuzatilaversa, keyinchalik epilepsiyaning boshqa turlari rivojlanishi ehtimoli bor. Bunday bemorlarda, ko'pincha, gippokamp sklerozi aniqlanadi. Ularda febril xurujlar Lennoks-Gasto sindromiga o'tib ketishi mumkin.

Manba: ©Z. Ibodullayev. **Asab kasalliklari. 2-nashr. Darslik, Toshkent, 2021., 960 b.**

©Z. Ibodullayev. **Nevrologiya. Qo'llanma., Toshkent, 2017., 404 b.**

©Z. Ibodullayev. **Epilepsiya. Qo'llanma., Toshkent, 2018., 128 b.**

© Ibodullayev ensiklopediyasi ©www.asab.uz